

Kuz ostonada

Nikolay Sladkov



Nikolay Sladkov
1920–1996

Nikolay Sladkov 1920-yil 5-yanvarda Moskva shahrida tavallud topgan. U bolaligidanoq tabiatni kuzatishni va uni tasvirlab yozishni yaxshi ko'rgan. 1953-yilda adibning "Kumush dum" deb nomlangan birinchi kitobi nashrdan chiqqan.

Adib yovvoyi tabiat qo'ynida hayvonlar va qushlarni fotosuratga olish, sayohat qilish, tabiat haqidagi o'z kuzatuvlarini kundaligiga qayd etib borishni juda yaxshi ko'rgan.



O'qing.

– Ey o'rmon ahli! – deya baland ovozda qag'il-ladi bir kuni ertalab dono Qarg'a. – Kuz o'rmon ostonasida turibdi, hamma uning kelishiga tayyormi?

O'rmon ichidan aks sado bilan ovozlar eshitildi:

– Tayyormiz, tayyormiz, tayyormiz...

– Hozir buni tekshirib ko'ramiz! – dedi Qarg'a. – Birinchi navbatda kuz o'rmonga sovuq tushiradi. Shunda sizlar nima qilasiz?

Hayvonlar javob berishdi:

– Biz – olmaxonlar, quyonlar, tulkilar – qishki mo'ynali to'nlarimizni kiyib olamiz!

– Biz – bo'rsiqlar, yenotlar – issiqqina inlarimizga yashrinamiz!

– Biz – kirpilar, ko'rshapalaklar – qattiq, shirin uyquga ketamiz!

Qushlar javob berishdi:

– Biz – ko'chmanchi qushlar* – issiq o'lkalarga uchib ketamiz!

– Biz – o'troq qushlar* – parli issiq nimchalarimizni kiyib olamiz!

– Keyin kuz daraxtlarning barglarini yulib tushira boshlaydi. Unda-chi? – qag'illadi Qarg'a.

– Mayli, yulaversin! – deyishdi qushlar. – Rezavor mevalar* yaqqol ko'rinib qoladi!

– Mayli, yulaversin! – deyishdi hayvonlar. – O'rmon ichi tinchroq bo'ladi!

– Kuz hasharotlarni ham sovuq bilan urib tushiradi! – dedi yana Qarg'a.

Unga javoban qorayaloqlar chetan mevalarini, qizilishtonlar esa g'uddalarni teshib, urug'ini yeyishlarini, sa'valar esa begona o'tlar urug'ini izlab topishlarini aytishdi.



Hayvonlar javob berishdi:

– Bizga esa pashsha, chivinsiz uxlash ancha tinchroq bo‘ladi!

– Kuz zerikarli kunlari bilan jonga tega boshlaydi! Yig‘loqi bulutlarni haydab kelib, tinmay yomg‘ir yog‘diradi. O‘yinqaroq shamollarni estiradi. Kunni qisqartirib, quyosh yuzini to‘sis qo‘yadi! – g‘o‘ldiradi yana Qarg‘a.

– Mayli, jonimizga tegaversin! – deb birgalikda javob berishdi qushlar va hayvonlar. – Bizni zerikarli kunlar bilan yengib bo‘lmaydi! Ustimizda mo‘ynali po‘stinlar-u pari nimchalar turganda, yomg‘ir va shamol nima ham qila olardi! Qornimiz to‘q bo‘lsa, aslo zerikmaymiz!

Dono Qarg‘a yana bir nimalarni so‘ramoqchi edi-yu, ammo qanot qoqib, havoga ko‘tarildi.

U uchib borarkan, pastda rang-barang, jozibali kuzgi o‘rmon barq urib turganiga ko‘zi tushdi. Kuz allaqachon ostonadan hatlab o‘tgan bo‘lsa-da, biroq hech kimni zarracha ham qo‘rqita olmagandi.



ko‘chmanchi qushlar – qishda issiq o‘lkalarga uchib ketadigan qushlar

o‘troq qushlar – qishda uchib ketmay, qishlash uchun qoladigan qushlar

rezavor mevalar – butalarning mayda mevalari





1. Ertak nima haqida ekan?
2. Bosh qahramonlarni nomlang.
3. Hayvonlar va qushlar qishga qanday tayyorgarlik ko'rishmoqda? Matndan topib o'qing.
4. **Kuz ostonada** degan sarlavhani qanday tushunasiz?
5. Qarg'a kuzning qanday jihatlarini aytib o'rmon ahlini qo'rqitmoqchi bo'ldi?
6. O'rmon ahli nega kuzdan qo'rqmadi?
7. Siz ertakni qanday davom ettirgan bo'lardingiz?



Ertak – to'qima voqealar va qahramonlar ishtirok etadigan, har doim yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qozonadigan badiiy asar.



O'ylab ko'ring. Matn mazmunini so'zlab berish rejasi to'g'ri tuzilganmi?

- Hasharotlarni sovuq urishi.
- Kunlarning sovishi.
- Xazonrezgilik.



Matnni o'qing. Mazmunini qisqacha so'zlab berishga tayyorlaning.

